

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR
FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL QILISH**

Xalilova Muhabbat Nutfullayevna

Buxoro-muhandislik texnologiya instituti dotsenti, Buxoro sh. xalilovamaya@bmti.uz

Istamova Dilfuza Shuxratovna

Buxoro-muhandislik texnologiya instituti talabasi

**ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУКОВОДЯЩИХ
РАБОТНИКОВ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ**

Халилова Мухаббат Нутфуллаевна

Доцент Бухарского инженерно-технологического института, г. Бухара.

Истамова Дилфуза Шухратовна

Студентка Бухарского инженерно-технологического института

**EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE ACTIVITIES OF LEADING
EMPLOYEES OF PUBLIC ADMINISTRATION BODIES**

Khalilova Muhabbat Nutfullaevna

Associate Professor at Bukhara Engineering and Technology Institute Bukhara.

Istamova Dilfuza Shukhratovna

Student of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Iqtisodiyotning hozirgi zamonaviy bosqichida rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotiga innovatsion faoliyat muhim o‘rin egallaydi. Birgina, innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sanoatining rivojlanib borishi natijasida jahon miqyosida yaratilayotgan jahon yalpi mahsulotning qariyb 5,5 foizi aynan shu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shuni qayd etish lozimki, raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarning roli yanada oshmoqda, ular iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylandi.

Raqamli iqtisodiyotda innovatsion faoliyat sanoat korxonalarida ishlab chiqarish munosabatlari, xo‘jalik yuritish mexanizmi, shakllari va mehnatni tashkil etishning sun‘iy intellektual jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Shuni qayd etish lozimki, mamlakatimizning innovatsion rivojlanish strategiyasida “2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirish” hamda iqtisodiyotimizda “raqamli iqtisodiyot ulushini 30 foizgacha oshirish” vazifasi belgilangan. [1]

Hozirgi rivojlanish bosqichi zamonaviy boshqaruv va innovatsiyaga asoslangan samarali raqamli iqtisodiyotni barpo etishga asoslangandir. [2]. Aynan mazkur ikki jihat har bir davrning iqtisodiy rivojlanishida o‘zining izini qoldiradi va rivojlanish darajasini belgilab beradi. Ushbu bosqich iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini vujudga keltirib, ya’ni

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

rivojlanishning bir bosqichidan keyingi takomillashgan innovatsiyaga asoslangan raqamli bosqichga o'tishiga moddiy hamda texnik-texnologik asos yaratadi. [3]. Shuningdek, iqtisodiy transformatsiya natijasida sifat, texnik-texnologik jihatdan oldingi tizimga nisbatan innovatsion raqamli iqtisodiyot vujudga keladi. Raqamli iqtisodiyotda jamiyat ne'matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'llashga qaratiladi. [4].

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritishning bir shakli bo'lib, bunda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar, turli shakl va hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va natijasini tahlil qilish yordamida turli xildagi vazifalarni amalga oshirishda samaraliroq tizimli echimlar majmuidir. [5]. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu turli shakldagi xizmatlarni onlayn tarzida ko'rsatish, to'lovlarni elektron tartibida amalga oshirish, tijorat savdolarini internet tarmoqlari yordamida tashkil etish va boshqa turdagi sohalarning o'zaro raqamli zamonaviy texnologiyalar bilan bog'langan tizimdir. Ta'kidlash lozimki, Harakatlar strategiyasida qayd etilgan vazifalarni samarali bajarish, eng avvalo, inson omiliga bog'liq. Inson o'zining ilmi, bilimi, kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, ijodi bilan mamlakat taraqqiyotiga katta ulush qo'shadigan omildir. [6]. Nobel mukofoti sohiblari Amerikalik iqtisodchi olimlar P.Duglas va R.Solouning ta'kidlashicha, mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sur'atlarida texnika, texnologiya, moddiy resurslar bilan bog'liq omillar 30–35 foizni, inson va uning intellektual salohiyati bilan bog'liq omillar esa 65–70 foizni tashkil qilar ekan. Bu fikr jamiyat rivojida inson omili, inson kapitali mavqeining naqadar yuksakligini, inson mehnatining, ayniqsa, intellektual salohiyatning taraqqiyotdagi o'rni nechog'lik yuqoriligini ko'rsatadi.

Hozirgi globallashuv va o'zaro integratsiyalashuv sharoitida [7] raqobat kurashi tobora kuchayib borayotgan bir davrda har qanday mamlakatning kelajakdagi rivoji, eng avvalo, insonlarda mujassamlashgan intellektual salohiyatni saqlash, ko'paytirish, undan oqilona hamda tijorat yo'lida foydalanishga bog'liq ekanligini hech kim rad etmaydi. Oliy ma'lumotga ega, ilmiy, malakali va katta amaliy tajriba sohibi bo'lgan insonlarga jamiyatning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiyalash darajasini belgilashi, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish sohasini shakllantirishi, jadallashtirishi mumkin. [8].

Davlatni aql-idrok bilan boshqarish, – mutafakkir Abu Nasr Forobiy aytganidek, – xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir. Bu hikmatli so'zlar, bugungi kunda, davlatlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim shioriga aylanishi lozim.

Tahlillarimiz shundan dalolat bermoqdaki, uzoq yillar davomida barcha mamlakatlarda turli ichki muammolar, kelishmovchiliklar, nomutanosibliklar, inson huquqlarining buzilishi, zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar sonining ortishi, terrorizmning kuchayishi, narkotik hamda psixotrop moddalar iste'molining ko'payishi, korrupsiya, byurokratiya, turli

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

kasalliklarning tarqalishi, atrof-muhitning ifloslanish holatlari kuchayib, ularning inson xavfsizligi va salomatligiga tahdidi ortib bormoqda.

Inson hayoti bilan bog'liq sohalarda turli muammolarning yuzaga kelishi jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytiradi, jamiyat rivojiga sezilarli darajada putur yetkazadi. Insonlarning kundalik hayotidagi osudalik buziladi, turmush tarzi pasaya boshlaydi, ertangi kunga ishonch yo'qola boradi. [9]. Yuqoridagilarni inobatga olib, jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda inson xavfsizligini ta'minlashning bugungi taraqqiyot mazmuniga mos yangi strategik Konsepsiyasini ishlab chiqish va hayotga joriy etishni taklif etamiz.

Uzoq yillar davomida mamlakatimizda amalga oshirilgan siyosatning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratsak, unda alohida e'tibor milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilganligi ma'lum bo'ladi. Inson xavfsizligini ta'minlashning yangi Konsepsiyasi zaminida nimalar yotishi kerak? Unda qanday strategik vazifalar qo'yilishi lozim? Bu boradagi davlatning siyosati qanday bo'lishi kerak? Bizning fikrimizcha, inson xavfsizligini ta'minlash Konsepsiyasi zaminida quyidagi fundamental prinsiplar, shakllantiruvchi qoidalar mujassam bo'lishi kerak:

Birinchidan, inson xavfsizligiga tahdid, xavfning yuzaga kelish alomati paydo bo'lgan vaqtdan boshlab xavfsizlik choralari ishlab chiqish, tezkor hayotga tatbiq eta boshlash kerak. [10]. Bu ishni paysalga solib bo'lmaydi. Tahdid, xavflarning ba'zi turlari shunday xususiyatlarga egaki, ularning tezkor oldini olish choralari ko'rilmasa, oqibati ayanchli bo'lishi hayotda ko'p tasdiqlangan. Xususan, mamlakatimizdan norasmiy yo'l bilan xorijga ketayotgan mehnat migrantlari – O'zbekiston fuqarolarining taqdiri bilan uzoq yillar davomida hech kim, hech qanday idora, tashkilot amalda shug'ullanmadi. Oqibatda, xorijga ketgan hamyurtlarimizdan 20-30 foizining hayoti katta xavf-xatar ostida bo'ldi, 3-5 foiz hamyurtlarimiz esa turli sabablar bilan, himoyasizligi oqibatida hayotdan ko'z yumdi, "odam savdosi"ning qurboni bo'ldi. [10].

Migrantlar masalasi hukumatning diqqat markazida bo'lishi, bu borada tegishli tadqiqotlar o'tkazilishi lozim. Xorijdagi O'zbekiston fuqarosining yashash joyi, faoliyatining turi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy himoyalanganlik darajasi, daromadlari xususidagi ma'lumotlar tegishli davlat idoralarida mavjud bo'lishi kerak. Xorijdagi har bir fuqaromiz to'g'risida "ma'lumotlar banki"ni yaratish va uning asosida odamlarimiz bilan doimiy aloqada bo'lib turish kerak. Bu borada sharoit taqozo etsa, xalqaro normalar doirasida migrantlar ishi bo'yicha ba'zi majburlov choralari ham joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, inson xavfsizligini ta'minlash davlatning uzoq muddatga hamda yaqin kelajakka belgilagan vazifalaridan, milliy hamda xalqaro xavfsizlikni ta'minlash borasidagi amaliy ishlaridan kelib chiqishi lozim. Inson xavfsizligini ta'minlash milliy xavfsizlikni ta'minlash darajasida, u bilan bir qatorda bo'lishi zarur. [9].

Uchinchidan, inson xavfsizligini ta'minlash masalasi inson huquqlari, demokratiya, taraqqiyot borasida amalga oshiriladigan tadbirlar bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

To'rtinchidan, inson xavfsizligiga bo'layotgan tahdid, xavf, chaqiriqlar, bugungi kunda juda murakkab tus olganligini inobatga olish va har bir shaxs xavfsizligini ta'minlashda, bu ishda tashabbuskor bo'lishda jamiyatdagi barcha kuchlar — davlat boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, xalqaro nufuzli tashkilotlar mas'ul bo'lishlari lozim. Sababi, inson xavfsizligiga bo'layotgan tahdidlar nafaqat milliy, balki xalqaro, global [12]. ahamiyatga ega va ularni bartaraf etish davlatlarning ko'p tomonlama hamkorligini taqozo etadi. Bu hamkorlik natijasida esa samarali [13] qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish, hayotga joriy etish imkoni tug'iladi.

Beshinchidan, inson xavfsizligi Konsepsiyasini ishlab chiqishda bu ishga aloqador idoralarning tizimli hamkorligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, inson xavfsizligini ta'minlash va uni yangi bosqichga ko'tarishda nodavlat-notijorat tashkilotlarining roli juda muhim. NNTlar inson xavfsizligini ta'minlashda davlatning yaqin hamkori bo'lishi darkor.

Shunday qilib, kadrlar salohiyatini innovatsion [11] rivojlantirishda birinchi o'ringa foyda va iqtisodiy natijalarning yuqoriligi emas, hamkorlar timsolida kelgusida yuqori faoliyat natijalariga erishish yo'lida qo'l keladigan ijobiy qiyofasini yaratish ko'tariladi. Ijobiy qiyofa, o'z navbatida, yangi va yuqori sifatli inson resurslarini jalb qilishga imkon beradi. Fikrimizcha, ustuvorliklarni aynan shunday belgilash O'zbekiston biznesi uchun dolzarb ahamiyatga ega. Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish doimo istalgan xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.// <https://lex.uz/>
2. Mehnat bozori transformatsiyalashuvida ish bilan bandlik o'zgarishini boshqarish (monografiya) Primova Sh.J.,Po'lotov Sh.Sh. T, "Tafakkur-bo'stoni",2023. 96 b.
3. Strategik menejment (o'quv qo'llanma) Xayitov Sh.N.,Po'lotov Sh.Sh. T, "Turon nashriyoti", 2021.230 b.
4. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – T. 8. – №. 5. View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View
5. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.
6. Мусаева Ж. К. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ТАЪЛИМДА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

7. Мусаева Ж. К. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 288.

8. Мусаева Ж. К. Роль цифровой трансформации в развитии экономики Узбекистана. – 2021.

9. Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. Информационная безопасность—важное условие цифровой экономики. – 2021.

10. Мусаева Ж. К. Тенденции развития цифровой экономики и образования в Узбекистане //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 246-250.

11. Karomatovna M. J., Rustambek R. BILIMLARGA ASOSLANGAN RAQAMLI IQTSODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ. – 2021. – С. 505.

12. Мусаева, Ж. К. "РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ НАУКИ И ТЕХНИКИ." ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ УЧУН ИЛМИЙ АХБОРОТ РЕСУРСЛАР: 51.

13. Артикова Д. М., Юлдашева С. Н., Мусаева Ж. К. Роль предпринимательства, управления в совершенствовании экономического механизма хозяйствования //Економіка і управління національним господарством. – 2013. – №. 9. – С. 65.

www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.

www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

www.zivonet.uz - O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portal